

MAKTAB O'QITUVCHISINING KASBIY KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH SAMARADORLIGI

Tugalov Ravshan G'ulomovich

Qoraqalpoq davlat universiteti tadqiqotchisi, Samarqand, O'zbekiston

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21943794>

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktab o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasini takomillashtirish samaradorligi baholash mezonlarini takomillashtirish masalalari tahlil qilingan. Zamonaviy ta'lim tizimida o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini aniqlash, baholash va rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Tadqiqotda xorijiy, MDH va mahalliy olimlarning ilmiy qarashlari o'rganilib, mavjud baholash yondashuvlari tahlil qilindi. Shuningdek, o'qituvchilarning kasbiy faoliyatini obyektiv va tizimli baholashga xizmat qiluvchi raqamli mezonlar hamda indikatorlar taklif etildi. Tadqiqot natijalari o'qituvchilarning faoliyatini monitoring qilish samaradorligini oshirish, malaka oshirish jarayonlarini takomillashtirish va ta'lim sifatini yuksaltirishga xizmat qiladi. Mazkur takliflar o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash hamda ta'lim muassasalarida samarali boshqaruv mexanizmlarini joriy etish uchun muhim ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: kasbiy, kompetensiya, o'qituvchi, pedagog, raqamli, texnologiyalar, ta'lim, muhit, baholash, mezonlar, monitoring, sifat, yondashuv, platforma.

ЭФФЕКТИВНОСТЬ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ УЧИТЕЛЯ ШКОЛЫ

Аннотация: В данной статье проанализированы вопросы совершенствования критериев оценки эффективности развития профессиональной компетентности учителя школы. В современной системе образования важное значение приобретает выявление, оценка и развитие профессиональных компетенций учителей. В ходе исследования были изучены научные взгляды зарубежных, стран СНГ и отечественных ученых, а также проанализированы существующие подходы к оцениванию. Кроме того, предложены цифровые критерии и индикаторы, направленные на объективную и системную оценку профессиональной деятельности учителей. Результаты исследования способствуют повышению эффективности мониторинга деятельности педагогов, совершенствованию процессов повышения квалификации и повышению качества образования. Предлагаемые подходы имеют важное значение для поддержки профессионального развития учителей и внедрения эффективных механизмов управления в образовательных учреждениях.

Ключевые слова: профессиональный, компетентность, учитель, педагог, цифровой, технологии, образование, среда, оценивание, критерии, мониторинг, качество, подход, платформа.

THE EFFECTIVENESS OF IMPROVING THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF SCHOOL TEACHERS

Abstract: This article analyzes issues related to improving the criteria for assessing the effectiveness of enhancing the professional competence of school teachers. In the modern education system, identifying, assessing, and developing teachers' professional competencies is of great importance. The study examines the scientific views of foreign, CIS, and local scholars

and analyzes existing assessment approaches. In addition, digital criteria and indicators aimed at objectively and systematically assessing teachers' professional activities are proposed. The results of the study contribute to improving the effectiveness of monitoring teachers' activities, enhancing professional development processes, and increasing the quality of education. The proposed approaches are important for supporting teachers' professional development and introducing effective management mechanisms in educational institutions.

Keywords: professional competence, teacher, pedagogy, digital technologies, education, educational environment, assessment, criteria, monitoring, quality, approach, platform.

KIRISH. Bugungi kunda jahon ta'lim tizimida ta'limni raqamlashtirish jarayoni jadal sur'atlarda rivojlanmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, sun'iy intellekt, bulutli xizmatlar va raqamli ta'lim platformalarining keng joriy etilishi pedagog faoliyatiga yangi talablarni yuzaga keltirmoqda. Shu bois ta'lim jarayonini tashkil etish, boshqarish, monitoring va baholash tizimlari ham tubdan yangilanmoqda. Bunday sharoitda pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini doimiy baholab borish va ularni rivojlantirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro tajribaga ko'ra, ta'lim sifati ko'p jihatdan pedagogning kasbiy tayyorgarligi, zamonaviy metodlarni qo'llashi hamda raqamli texnologiyalar bilan ishlash ko'nikmalariga bog'liq. Shu sababli rivojlangan davlatlarda pedagog kompetensiyalarini baholashning zamonaviy va kompleks yondashuvlari joriy etilmoqda. Bunda nafaqat nazariy bilim, balki amaliy faoliyat, innovatsion yondashuv va raqamli vositalardan foydalanish darajasi ham hisobga olinadi.

Hozirgi zamon pedagogi faqat fan bilimiga ega bo'lish bilan cheklanmay, balki raqamli ta'lim resurslaridan foydalanishi, masofaviy va aralash ta'limni tashkil eta olishi, o'quv jarayonini individuallashtirishi hamda ta'lim natijalarini tahlil qila olishi zarur. Bu esa pedagog kasbiy kompetensiyasi tarkibini qayta ko'rib chiqish va uni baholash mezonlarini zamon talablariga moslashtirishni talab etadi.

O'zbekiston Respublikasida ham ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, pedagoglarning kasbiy salohiyatini oshirish va xalqaro standartlarga moslashuv davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda ta'lim muassasalarini raqamlashtirish, elektron resurslarni rivojlantirish hamda pedagog faoliyatini baholash tizimini takomillashtirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda [1].

Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetensiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o'z faoliyatida qo'llay bilishni taqozo etadi.

Kasbiy kompetentlik sifatleri.

1. Ijtimoiy kompetentlik – ijtimoiy munosabatlarda faollik ko'rsatish ko'nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda subyektlar bilan muloqotga kirisha olish.

2. Maxsus kompetentlik – kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalarini real baholash, BKMni izchil rivojlantirib borish bo'lib, ushbu kompetentlik negizida psixologik, metodik, informatsion,

kreativ, innovatsion va kommunikativ kompetentlik ko'zga tashlanadi. Ular o'zida quyidagi mazmunni ifodalaydi:

a) **psixologik kompetentlik** – pedagogik jarayonda sog'lom psixologik muhitni yarata olish, o'quvchilar va ta'lim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan ijobiy muloqotni tashkil etish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o'z vaqtida anglay olish va bartaraf eta olish;

b) **metodik kompetentlik** – pedagogik jarayonni metodik jihatdan oqilona tashkil etish, ta'lim yoki tarbiyaviy faoliyat shakllarini to'g'ri belgilash, metod va vositalarni maqsadga muvofiq tanlay olish, metodlarni samarali qo'llay olish, vositalarni muvaffaqiyatli qo'llash;

c) **informatsion kompetentlik** – axborot muhitida zarur, muhim, kerakli, foydali ma'lumotlarni izlash, yig'ish, saralash, qayta ishlash va ulardan maqsadli, o'rinli, samarali foydalanish;

d) **kreativ kompetentlik** – pedagogik faoliyatga nisbatan tanqidiy va ijodiy yondoshish, o'zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish;

e) **innovatsion kompetentlik** – pedagogik jarayonni takomillashtirish, ta'lim sifatini yaxshilash, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga doir yangi g'oyalarni ilgari surish, ularni amaliyotga muvaffaqiyatli tatbiq etish;

f) **kommunikativ kompetentlik** – ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari, jumladan, o'quvchilar bilan samimiy muloqotda bo'lish, ularni tinglay bilish, ularga ijobiy ta'sir ko'rsata olish.

g) **Shaxsiy kompetentlik** – izchil ravishda kasbiy o'sishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o'z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish.

h) **Texnologik kompetentlik** – kasbiy-pedagogik BKMni boyitadigan ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish.

i) **Ektremal kompetentlik** – favqulotda vaziyatlar (tabiiy ofatlar, texnologik jarayon ishdan chiqqan)da, pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish, to'g'ri harakatlanish malakasiga egalik.

Raqamli texnologiyalar esa ushbu muammolarni bartaraf etishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Elektron platformalar, monitoring tizimlari va raqamli portfoliolar pedagog faoliyati haqidagi ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish va baholash jarayonini sezilarli darajada takomillashtiradi. Bu esa baholashning shaffofligi va ishonchligini oshiradi hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilishni yengillashtiradi.

Mazkur holatlar pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini raqamli texnologiyalar asosida baholash mezonlarini ilmiy jihatdan takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Shu nuqtai nazardan, mavjud yondashuvlarni tahlil qilish va zamonaviy talablar asosida yangi baholash mezonlarini ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo'lib, tadqiqot aynan shu masalalarga qaratilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

O'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish, rivojlantirish va baholash masalalari so'nggi yillarda pedagogika va ta'lim menejmenti sohalarida muhim ilmiy yo'nalishlardan biriga aylangan. Kompetensiyaviy yondashuvning keng joriy etilishi pedagog faoliyatini baholash mezonlarini qayta ko'rib chiqish va zamonaviy talablarga moslashtirish zaruratini yuzaga keltirdi. Shu bois kasbiy kompetensiya mazmuni, uning tarkibi hamda baholash mexanizmlarini o'rganish muhim ahamiyatga ega.

Kasbiy kompetensiya tushunchasi ilk bor D. McClelland tomonidan ilmiy muomalaga kiritilib, unda kasbiy muvaffaqiyat faqat bilim darajasiga emas, balki ularni amaliyotda qo'llash, muammolarni hal etish va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatiga ham bog'liqligi ta'kidlangan [2]. R. Boyatzis kompetensiyani bilim, ko'nikma, qadriyat va shaxsiy sifatning integratsiyasi sifatida talqin qiladi [3]. L. Shulman esa pedagogik kompetensiyaning muhim asosi sifatida fan, pedagogik va metodik bilimlar integratsiyasini ko'rsatadi [4].

Uslubiy faoliyati yangi mahsulotlar – ilmiy tadqiqotning yangi usullari va vositalarini olishga qaratilgan maxsus ilmiy faoliyat sifatida amalga oshiriladi. Kasbiy kompetensiya – bu tuzilma o'qituvchining didaktik, tashkiliy, tahliliy qobiliyatlari bilan ta'minlangan kasbiy bilimlar, ko'nikmalar, shaxsiy fazilatlar. [5,6].

Bu o'qituvchining kasbiy faoliyatga tayyorligida yetakchi o'rinni egallaydigan, bilim va ko'nikmalarni birlashtirgan va aniq amaliy xarakterga ega bo'lgan uslubiy kompetensiya MDH olimlari, jumladan I.A. Zimnyaya kompetensiyani integrallashgan shaxsiy sifat sifatida, A.V. Xutorskoy esa kompetensiyani talablar majmui va kompetentlikni ularni amalda bajarish qobiliyati sifatida izohlaydi. A.A. Verbitskiy, V.V. Serikov va E.F. Zeerlar faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv va amaliy tajribaning ahamiyatini ta'kidlaydi [7,8,9].

O'zbekistonlik olimlar ham pedagog kompetensiyalarini rivojlantirish va ta'lim sifatini oshirish bo'yicha muhim tadqiqotlar olib borgan. N. Saidahmedov pedagogik texnologiyalarni, R. Ishmuhamedov innovatsion yondashuvlarni, U. Begimqulov AKT imkoniyatlarini, B. Xodjayev esa pedagogik kompetentlik va ta'lim sifati masalalarini o'rgangan [10,11,12,13].

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, pedagog kompetensiyalarining nazariy asoslari yetarlicha o'rganilgan bo'lsa-da, ularni raqamli texnologiyalar asosida kompleks baholash, avtomatlashtirilgan monitoring tizimlarini joriy etish hamda yagona raqamli platforma orqali tahlil qilish masalalari hali to'liq tadqiq etilmagan. Ayniqsa, baholash mezonlarini raqamli indikatorlar bilan uyg'unlashtirish va pedagog rivojlanishini doimiy monitoring qilish bo'yicha ilmiy izlanishlar yetarli emas.

Bu bilim va ko'nikmalarning batafsil tizimimaktabni o'qitish jarayonini qurish, shu jumladan, foydalanish bilan kelajakning uslubiy kompetensiyasining tuzilishimaktab o'qituvchisi maktabni o'qitish nazariyasi va metodikasi haqidagi bilimlarni ham, o'quv jarayonini loyihalash qobiliyatini ham o'z ichiga olishi kerak. Shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish qobiliyatini shakllantirishi lozim.

O'qituvchisining pedagogik faoliyati sifatini baholash quyidagilar uchun amalga oshiriladi:

- o'qituvchining professionalligini nazorat qilish, uning individual uslubiy ishlarining yo'nalishlarini aniqlash;

- ish sifati uchun nafaqalarni aniqlash.

Baholandi:

- o'qituvchining shaxsiy va kasbiy fazilatlarini;

- pedagogik faoliyat va uning natijalari.

Obyektiv va to'liq, buni malakaga asoslangan yondashuv yordamida baholash mumkin.

Shu jihatdan mazkur tadqiqot pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini raqamli texnologiyalar asosida baholash mezonlarini takomillashtirishga qaratilgan bo'lib, bu yo'nalishda ilmiy va amaliy bo'shliqni to'ldirishga xizmat qiladi.

TADDIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot umumiy o'rta ta'lim maktablari pedagoglarining kasbiy kompetensiyalarini raqamli texnologiyalar asosida baholash mezonlarini takomillashtirish masalasini ilmiy jihatdan o'rganishga qaratildi. Tadqiqot jarayonida nazariy va amaliy jihatlarni chuqur tahlil qilish, mavjud yondashuvlarni o'rganish hamda yangi baholash mezonlarini ishlab chiqish maqsadida bir-birini to'ldiruvchi ilmiy tadqiqot metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning metodologik asosini kompetensiyaviy, tizimli va faoliyatga yo'naltirilgan yondashuvlar, shuningdek raqamli transformatsiya konsepsiyasi hamda ta'lim sifatini boshqarish nazariyalari tashkil etdi. Ushbu yondashuvlar pedagog faoliyatini kompleks o'rganish va zamonaviy talablar asosida baholash mezonlarini ishlab chiqish imkonini berdi.

Kompetensiya – bu mutaxassisning ta'lim tayyorgarligi uchun berilgan talab, uning kasbiy rolining o'ziga xos xususiyati.

Kompetensiyaviy yondashuv asosida pedagog faoliyati nafaqat bilim va malaka, balki amaliy faoliyatni tashkil etish, muammolarni hal qilish va kasbiy rivojlanish ko'nikmalari nuqtai nazaridan baholandi. Tizimli yondashuv esa kasbiy kompetensiyani o'zaro bog'liq elementlar majmui sifatida ko'rib chiqishga xizmat qildi, natijada pedagogning kasbiy, metodik, raqamli, kommunikativ va innovatsion faoliyati yagona tizim sifatida tahlil qilindi. [5,6,14].

Barcha o'qituvchilar, tashvish ko'rsatkichlaridan qat'i nazar, dars vaqtini, maydonini tashkil qilish va o'qitish vositalaridan foydalanishda yuqori uslubiy kompetensiyani namoyish yetishlari aniqlandi (3). Ular darslarni samarali rejalashtiradilar, turli tashkiliy vazifalarga katta ye'tibor berishadi (o'quvchilar ye'tiborini nazorat qiladilar, tushuntirishlar va ko'rsatmalar beradilar), maktab o'quvchilarining ta'lim olishi uchun tashqi sharoitlarni ta'minlaydilar (sinflarning yuqori sifatli dizayni, tozalik, sinfdagi tartib). Barcha o'qituvchilar o'quv materialini tushuntirishda (2), faol o'qitish usullarini namoyish qilishda (5) va o'quvchilar bilan muloqot qilishda (4) kam rivojlangan kommunikativ kompetensiyalarga yega. Biroq, tashvish jihatidan farq qiladigan o'qituvchilarning pedagogik kompetensiyasida farqlar mavjud. O'rtacha tashvish darajasi o'rtacha bo'lgan o'qituvchilarning turli vakolatlari qiymatlari juda tashvishli hamkasblarinikidan oshib ketadi.

Eng muhim farqlar o'quvchining so'rovlari va uning ta'limdagi taraqqiyoti haqida ma'lumot olish (1), sinfda ijodiy muhit yaratish (6), sinfda o'quvchilarning maqbul xatti-harakatlarini saqlab qolish (7) qobiliyatida aniqlandi. Shunday qilib, juda xavotirli o'qituvchilar maktab o'quvchilarining kayfiyati va reaksiyalaridagi individual o'zgarishlarni ye'tiborsiz qoldirib, muayyan o'quvchilar bilan shaxsga yo'naltirilgandan ko'ra, umuman sinf bilan ijtimoiy yo'naltirilgan muloqotni afzal ko'rishdi. O'qituvchilar sinfdagi o'quvchilarning taraqqiyotini o'z vaqtida va yetarli darajada baholashda, o'quvchilarning kognitiv qiziqishini va ijobiy o'ziga bo'lgan munosabatini rag'batlantirishda, qulay, iliq va do'stona muhit yaratishda, o'quvchilarning bilim faolligini saqlashda va o'quv ishlariga kiritilmagan o'quvchilarga samarali rahbarlik qilishda qiyinchiliklarga duch kelishdi. Faoliyatning sanab o'tilgan sohalarida pedagogik kompetensiya darajasi minimal talab qilinadigan qiymatlardan past.

Sinfda o'qituvchining haqiqiy fikri, mulohazalari, mulohazalarini taqdim yetish holatlari juda kam uchraydi. O'quvchilar bilimini nazorat qilish, shuningdek, faktlar va tushunchalarni takrorlashni talab qiladigan to'g'ridan-to'g'ri savollar yoki bir bo'g'inli javob talab qilinadigan yopiq savollar shaklida amalga oshirildi. Ular materialni muammoli va ijodiy taqdim yetish usullaridan kamdan-kam foydalanganlar, tushuntirish paytida maktab o'quvchilarining savollari va reaksiyalarini rag'batlantirmaganlar.

Xulosa qilib aytganda, tadqiqot metodologiyasi pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini baholashni kompleks o'rganish, mavjud tajribalarni tahlil qilish hamda raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirilgan mezonlarni ishlab chiqishga xizmat qildi. Ushbu yondashuv natijalarning ilmiy asoslanganligi va amaliy ahamiyatini ta'minladi.

TAHLIL VA NATIJALAR. Tadqiqot davomida umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini baholash amaliyoti, mavjud normativ-huquqiy hujjatlar hamda milliy va xorijiy tajribalar qiyosiy tahlil qilindi. Natijalar o'qituvchi faoliyatini baholash tizimi shakllangan bo'lsa-da, raqamli transformatsiya talablari nuqtai nazaridan uni takomillashtirish zarurligini ko'rsatdi.

Tajriba sinov ishlari "Umumta'lim maktablari maktab o'qituvchilarining pedagogik kompetentligini tizimli tahlil asosida rivojlantirish" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishi natijalari 2023-2025 yillarda Jizzax viloyat Pedagogik mahorat markazi o'quv-tarbiya amaliyotiga joriy etildi va olib borildi.

Jizzax viloyat Pedagogik mahorat markazida o'tkazilgan tajriba-sinov natijalariga ko'ra, tajriba va nazorat guruhlaridagi natijalari quyidagicha bo'ldi: Tajriba guruhlarida tajriba boshida 10.3% (7 nafar) talaba yuqori baho olgan bo'lsa, nazorat guruhlarida tajriba boshida 15.3% (9 nafar) talaba yuqori baho olgan, tajriba oxirida tajriba guruhlarida 19.1% (13 nafar) talaba yuqori baho olib tajriba boshiga nisbatan 8.8 % ga ortganligini, nazorat guruhlarida esa tajriba oxirida 18.6 % (11-nafar) talaba yuqori baho olib 3.3% ga oshganligini ko'rishimiz mumkin

Tahlillar shuni ham ko'rsatdiki, baholash jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasi yetarli emas. Elektron bazalar, avtomatik monitoring va raqamli tahlil vositalarining cheklangan qo'llanilishi baholashning tezkorligi va aniqligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Aniqlangan muammolarni bartaraf etish maqsadida takomillashtirilgan raqamli baholash mezonlari tizimi ishlab chiqildi. Ushbu tizim pedagog faoliyatining asosiy yo'nalishlarini qamrab oladi va baholashning xolisligi hamda shaffofligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, pedagog kompetensiyalarini baholashda raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasi alohida yo'nalish sifatida ajratildi. Unda elektron resurslar yaratish, LMS platformalaridan foydalanish, onlayn baholash vositalari hamda masofaviy ta'lim texnologiyalarini qo'llash ko'nikmalari inobatga olinadi.

Taklif etilgan modelning muhim jihati barcha ko'rsatkichlarni yagona raqamli platforma orqali boshqarish imkoniyatidir. Bu tizim ma'lumotlarni avtomatik yig'ish, tahlil qilish va pedagoglarning kasbiy rivojlanish dinamikasini kuzatish imkonini beradi.

Umuman olganda, o'tkazilgan tahlillar pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini raqamli texnologiyalar asosida baholash ta'lim sifatini oshirish, monitoring tizimini takomillashtirish hamda boshqaruv samaradorligini kuchaytirishga xizmat qilishini ko'rsatdi. Taklif etilgan mezonlar tizimi esa ushbu jarayonlar uchun ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR.

XULOSA. Olib borilgan tadqiqot natijalari ta'lim tizimida raqamli transformatsiya jarayonlari pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini baholash yondashuvlarini takomillashtirish zarurligini ko'rsatdi. Zamonaviy ta'lim muhitida pedagog faoliyatini faqat an'anaviy usullar orqali baholash yetarli bo'lmay, raqamli texnologiyalardan foydalanish,

innovatsion metodlarni qo'llash va ta'lim natijalarini tahlil qilish kabi kompetensiyalarni ham inobatga olish talab etiladi.

umumta'lim maktablari o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik kompetentligini raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirish, baholash va takomillashtirishning nazariy-metodologik asoslari hamda amaliy mexanizmlari o'rganildi. Tadqiqot davomida olib borilgan ilmiy izlanishlar, nazariy tahlillar va tajriba-sinov ishlari natijasida quyidagi umumiy xulosalarga kelindi:

1. O'qituvchining kasbiy-pedagogik kompetentligi zamonaviy ta'lim tizimining asosiy tarkibiy qismi bo'lib, uning pedagogik, metodik, psixologik, kommunikativ va raqamli kompetensiyalarining uzviy integratsiyasi asosida shakllanadi. Ushbu kompetensiyalar o'zaro bog'liq holda rivojlanib, pedagogning kasbiy faoliyati samaradorligini ta'minlaydi.
2. Raqamli transformatsiya sharoitida o'qituvchilarning kasbiy kompetentligiga qo'yiladigan talablar yangi mazmun kasb etmoqda. Shu sababli pedagoglarni innovatsion va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanishga tayyorlash, ularning raqamli savodxonligini rivojlantirish ta'lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.
3. O'qituvchining zamonaviy kasbiy qiyofasi va professional imiji uning kasbiy mahorati, innovatsion faoliyatga tayyorligi, kreativ fikrlashi, kommunikativ madaniyati hamda doimiy rivojlanishga intilishi bilan belgilanadi. Pedagogning ijobiy imiji uning jamiyatdagi mavqeini mustahkamlash va ta'lim sifati ko'rsatkichlarini oshirishga xizmat qiladi.
4. Kasbiy-pedagogik kompetentlikni baholash tizimi ilmiylik, tizimlilik, obyektivlik, diagnostiklik, uzluksizlik va amaliy yo'naltirilganlik tamoyillariga asoslanishi lozim. Mazkur tamoyillar pedagog faoliyatini kompleks tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash va rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqishga imkon beradi.
5. O'qituvchilar kompetentligini baholashning ishlab chiqilgan modeli maqsad, mezon, ko'rsatkich, baholash vositalari va natijalar o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ta'minlaydi. Ushbu model pedagoglarning kasbiy rivojlanish darajasini aniqlash, monitoring qilish va istiqboldagi rivojlanish yo'nalishlarini belgilash uchun metodik asos bo'lib xizmat qiladi.
6. Pedagogik kompetentlikni tizimli tahlil qilish jarayonida motivatsion-qadriyatli, kognitiv, faoliyatli-amaliy va refleksiv komponentlarning o'zaro uyg'unligi o'qituvchi faoliyatini har tomonlama baholash imkonini beradi. Bu esa pedagogik faoliyat sifatini oshirishga qaratilgan qarorlar qabul qilishning ilmiy asoslarini yaratadi.
7. O'qituvchilarning kasbiy-pedagogik kompetentligini baholashda testlar, so'rovnomalar, ekspert baholash, kuzatish, o'z-o'zini baholash va elektron monitoring vositalaridan foydalanish baholash natijalarining aniqligi hamda ishonchliligini oshiradi. Raqamli texnologiyalar esa mazkur jarayonni avtomatlashtirish va samarali boshqarish imkonini beradi.

Shuningdek, o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik faoliyati, metodik tayyorgarligi, raqamli kompetensiyalari, kommunikativ qobiliyatlari, innovatsion faoliyati va kasbiy rivojlanish faolligini yagona tizim asosida baholash maqsadga muvofiqligi aniqlandi. Ayniqsa, raqamli kompetensiyalarni baholash mezonlari zamonaviy ta'lim talablarining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Shunday qilib, umumta'lim maktablari o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik kompetentligini raqamli texnologiyalar asosida baholash va rivojlantirish ta'lim sifatini

oshirish, pedagoglarning kasbiy salohiyatini yuksaltirish hamda zamonaviy ta'lim muhitining talablariga mos raqobatbardosh pedagog kadrlarni shakllantirishning muhim omili ekanligi ilmiy va amaliy jihatdan asoslandi.

TAKLIFLAR.

1. Tadqiqot natijalari asosida quyidagi takliflarni amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi: Umumta'lim maktablarida o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik kompetentligini baholashning raqamlashtirilgan monitoring tizimini joriy etish maqsadga muvofiq. Bu pedagoglarning kasbiy rivojlanish dinamikasini muntazam kuzatish, natijalarni tahlil qilish va individual rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish imkonini beradi.
2. O'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan malaka oshirish kurslari va metodik treninglar mazmunini zamonaviy pedagogik hamda raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirish zarur. Bunda sun'iy intellekt vositalari, elektron ta'lim platformalari va innovatsion o'qitish metodlaridan foydalanishga alohida e'tibor qaratilishi lozim.
3. Pedagogik kompetentlikni baholash mezonlari va indikatorlarini ta'lim muassasalari amaliyotiga bosqichma-bosqich joriy etish hamda ularni attestatsiya, malaka oshirish va kasbiy rivojlanish jarayonlari bilan integratsiyalash tavsiya etiladi. Bu o'qituvchilarning kasbiy o'sishini rag'batlantirish va ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.
4. Mazkur takliflarni amaliyotga joriy etish pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini baholash tizimini yanada takomillashtirish, ta'lim sifati monitoringini kuchaytirish hamda ta'lim muassasalarida samarali raqamli boshqaruv mexanizmlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. Mirziyoyev Sh. M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O'zbekiston, 2016. – 56 b.
3. Boyatzis R.E. The Competent Manager. – New York: Wiley, 1982.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-apreldagi "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4699-sonli Qarori. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.04.2020-y., 07/20/4699/0520-son.
5. UNESCO. ICT Competency Framework for Teachers. – Paris, 2018.
6. Zimnyaya I.A. Klyuchevye kompetentsii kak rezultat obrazovaniya. – Moskva, 2004.
7. Xutorskoy A.V. Klyuchevye kompetentsii kak komponent lichnostno orientirovannogo obrazovaniya. – Moskva, 2003.
8. Verbitskiy A.A. Kompetentnostniy podxodi teoriya kontekstnogo obucheniya. – Moskva, 2004.
9. Saidahmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2012.
10. Ishmuhamedov R. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2018.
11. Begimqulov U. Ta'limda axborot texnologiyalarini joriy etish masalalari. – Toshkent, 2016.
12. Xodjayev B. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent, 2017.
13. OECD. Teachers and School Leaders as Lifelong Learners. – Paris, 2020.
14. European Commission. DigCompEdu: European Framework for the Digital Competence of Educators. – Luxembourg, 2017.

15. Allambergenova M.X., Taylakov U.N. Interaktiv o'quv majmua yaratish: nazariya va amaliyot. "FAN VA TEXNOLOGIA" nashriyoti. Monografiya. – Toshkent: 2013. – 164 b.
16. Askarov A. Xalq ta'limi xodimlari malakasini masofadan oshirish tizimini takomillashtirishning tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari. Monografiya. – Toshkent: ABU MATBUOT-KONSALT, 2016. – 160 bet.
17. Askarov A. Xalq ta'limi xodimlari malakasini masofadan oshirish tizimini takomillashtirishning tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari. Monografiya. – Toshkent: ABU MATBUOT-KONSALT, 2016. – 160 bet.
18. Baryshnikov N.V. Professionalnaya mejkulturnaya kommunikatsiya: monografiya. – Pyatigorsk: PGLU, 2010. – 264 s.
19. Begimqulov U.Sh. Ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. Monografiya. – Toshkent: Fan, 2007. – 160 b.